

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

SAPARNIYAZOVA MUYASSAR

**O‘ZBEK TILI ERGONIMLARINING STRUKTUR-SEMANTIK,
LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Science (DSc)
on Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по филологическим наукам**

Saparniyazova Muyassar

O‘zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi.....3

Saparniyazova Muyassar

Structural-semantic, linguistic-cultural and pragmatic study of Uzbek language ergonims 37

Saparniyazova Muyassar

Структурно-семантическое, лингвокультурологическое и прагматическое исследование эргонимов узбекского языка.....73

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 77

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

SAPARNIYAZOVA MUYASSAR

**O‘ZBEK TILI ERGONIMLARINING STRUKTUR-SEMANTIK,
LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Fil405 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining www.tai.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Lutfullayeva Durдона Esonovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Yo'ldoshev Ma'rufjon Muhammadjonovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Iskandarova Sharifa Madaliyevna
filologiya fanlari doktori, professor


Jo'rayeva Bibish Muxsinovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "2" avgust soat 12.00 majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahr-sabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (871) 233-36-50, faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 700100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 262-74-58.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "21" avgust da tarqatildi.
(2023-yil "21" avgust dagi 6 - raqamli reestr bayonnomasi).


D.S. Xudayberganova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

G.M. Ismoilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, f.f.n.,
katta ilmiy xodim

Sh.R. Usmonova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar rais o'rinbosari, f.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo tilshunosligida tildagi onomastik birliklar masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shu kunga qadar turli tillardagi onomastik birliklarning leksik-semantik, struktur-funksional, derivatsion xususiyatlari, tasnifi masalasi bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. O'tgan asrning oxirlariga kelib til tadqiqiga yondashuvlar o'zgardi, tilshunoslikka antroposentrizm g'oyalarining kirib kelishi natijasida tilning barcha sath birliklari qatorida onomastik birliklarni ham inson omili bilan bog'liq holda o'rganish amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, onomastik birliklarda aks etgan olamning lisoniy manzarasiga tavsif berishda insonning bu birliklar ifoda etgan "predmet"larni qanday idrok etishi, onomastik nom hosil qilishida lingvistik me'yorlar qatorida olam haqidagi bilim va tasavvurlariga suyanishi, jamiyatda shakllangan milliy qadriyatlar, odob-axloq qoidalariga amal qilishi kabi masalalar bugungi globallashuv jarayonida dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy aloqalar jadal rivojlanayotgan bir sharoitda amaliy ahamiyatga ega. Onomastik birliklarga antroposentrik yondashuv bu tipdagi birliklarning lingvomadaniy, kognitiv, pragmatik, sotsiolingvistik xususiyatlarini ham ochib berish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahon tilshunosligida onomastikaning alohida tarmog'i sifatida ergonimika masalalari tadqiqiga e'tibor XX asr oxirlaridan boshlab jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarning rivojlanishi, davlatlararo tijoriy aloqalarning ortishi natijasida yanada faollashmoqda. Ergonimlar tarkibida pragmatonim, oykodomonim, urbanonim, ergoreklamonim, kabi onomastikaning mustaqil turlarining lingvistik xususiyatlarini xalqning milliy an'ana va qadriyatlarini, urf-odatlarini, turmush tarzi, e'tiqodi, dunyoqarashi, tarixi, madaniyati to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aniqlash, ergonimlarni hududiy xoslanish, sistem-struktur, funksional va antroposentrik aspektda kompleks o'rganish soha oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ergonimlarning bu kabi xususiyatlarini, shuningdek, jamiyatda tutgan o'rnini belgilash, hosil qilinish usullari, milliy-madaniy xoslanishi, madaniy nutq me'yorlari bilan bog'lanishi masalasini tahlil qilish ularning mohiyatini to'liq ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillikdan so'ng o'zbek tilshunosligida til birliklarini inson omili bilan bog'liq holda o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda "ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma'naviy saviyamizni yaqqol ko'rsatadigan o'ziga xos mezon"¹ ekanligi belgilab berilgan bir sharoitda, milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lgan onomastik tizim birliklari, bu tizimga mansub ergonimlarning lingvistik xususiyatlarini davr talablari darajasida o'rganish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, o'zbek tilida savdo, ishlab chiqarish obyektlari va mahsulotlari uchun milliy nomlar yaratish masalasi bo'yicha

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.

bir qator ishlar amalga oshirildi.² Shunga qaramay, bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Xususan, tilshunosligimizda hozirgacha onomastik tizim tarkibida ergonomlarning o'rni belgilanmagan, o'zbek tilida ergonomlarning o'ziga xos xususiyatlari, hosil bo'lish usullari, lingvomadaniy, pragmatik xususiyatlari monografik planda o'rganilmagan. "O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish"³ vazifasidan kelib chiqib, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish maqsadida o'zbek tilshunosligida ergonomlarning lingvistik tahlilini amalga oshirish, ergonomik mikrotizimni tashkil etuvchi birliklarni inson omili bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan antroposentrik xususiyatlarini tadqiq etish, ergonomlarning hududiy xoslanishi va tashkilot, firma, ishlab chiqarish, tijorat, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini nomlash qonuniyatlari kabi ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son farmoniga muvofiq tasdiqlangan "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi", O'zR Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16- martdagi "Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 144-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.⁴ Tilshunoslikning onomastika yo'nalishida, shu jumladan, ergonomlarni o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Istanbul Universiteti (Turkiya), University of Washington (AQSH), University of Amsterdam (Niderlandiya), University of London (Angliya), University of Peshavar (Pokiston), Toronto School of Theology

² Saparniyazova M., O'rozov J. O'zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O'zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me'yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги «Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида» ги ПҚ-4479-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4664611?type=doc>.

⁴Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи қуйидаги манбалар асосида амалга оширилди: <https://freereferats.ru/>; <https://yorkspace.library.yorku.ca/xmlui/handle/10315/2901>; www.utexas.edu; www.berkeley.edu; www.northwestern.edu; www.bu.edu; www.ecu.edu.au; www.unice.fr/en; www.u-bordeaux.com; www.lang.ox.ac.uk; www.english.pku.edu.cn; www.sophia.ac.jp/eng; www.u-tokyo.ac.jp/en; www.bsu.edu.az; www.msu.ru; www.bashedu.ru; www.kaznu.kz; www.navoiy-uni.uz.

(Kanada), Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Astraxan davlat universiteti, Volgograd davlat pedagogika universiteti, Novosibirsk davlat universiteti (Rossiya), Qozoq milliy universiteti (Qozog‘iston), Dog‘iston davlat universiteti (Dog‘iston), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida ergonimlarning struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalarga ega bo‘lingan: ergonimlarning lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan (Beijing University, XXR); ergonimlarning matndagi vazifasi aniqlangan (Sophia University; University of Tokyo, Yaponiya); ergonimlarning leksik-semantik va derivatsion xususiyatlari dalillangan (Samara davlat pedagogika universiteti); ikkilamchi nominatsiya nom hosil qilish va til lug‘at tarkibini boyitishning kognitiv-pragmatik aspektidagi modellari aniqlangan (Ural davlat universiteti); auditoriya maqsadiga muvofiq ergonim tanlashda psixologik yondashuvning o‘rni aniqlangan (Astraxan davlat universiteti); neyming va ergonimikaning aloqasi va o‘ziga xos xususiyatlari asoslangan, shuningdek, tashkilot, firma, ishlab chiqarish, tijorat, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarini nomlash tamoyillari va qonuniyatlari, ularni tartibga solish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O‘zbekiston).

Dunyo tilshunosligida ergonimik tizimni kompleks o‘rganish masalalari bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: har bir hududga xos ergonimik manzarani tahlil qilish; bir tildagi ergonimlarning boshqa tillardagi ergonimik birliklardan farqli xususiyatlarini aniqlash; nom va ergonim munosabati, ularning funksiyasini ijtimoiy omillar bilan bog‘liqlikda ochib berish; ergonimik mikrotizimning ichki struktura qonuniyatlarini ochib berish; ergonimlarni sistem-struktur va antroposentrik aspektda kompleks o‘rganish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ma‘lumki, *ergonim* termini ilk marta N.V.Podolskayaning 1978-yilda chop etilgan “Rus onomastik terminlari lug‘ati”da qayd etilgan.⁵ Ergonimlarni ilmiy muammo sifatida tadqiq etish masalasi o‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlab rus tilshunosligida o‘rtaga tashlandi.⁶ XXI asr boshlariga kelib ergonimlarni struktur-semantik aspektda tadqiq etish boshlab berildi. Xususan, T.N.Aliyeva, I.V.Kryukova, A.M.Yemelyanova, Z.T.Tanayeva tadqiqotlarida ergonimlarning struktur-semantik, derivatsion xususiyatlari yoritildi, leksik-semantik tasnifi amalga oshirildi.⁷ M.Y.Kryuchkova ergonimlarning

⁵ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988.

⁶ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М., 1985; Прокуровская Н. А. Город в зеркале своего языка (на яз. материале г. Ижевска). – Ижевск: Изд-во Удмурт. ун-та, 1996; Голомидова М. В. Искусственная номинация в русской ономастике: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Екатеринбург, 1998; Романова Т. П. Проблемы современной эргонимии // Вестник Самарского государственного университета. – Самара, 1998. – № 1 (7). – С. 82-90.

⁷ Алиева Т.Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX–XXI веков: семантико-derivационный аспект: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Спб., 2003; Крюкова И.В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентов: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004; Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтничного города (на примереназваний деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2007; Танаева

orfografik xususiyatlarini tahlil qildi.⁸ Keyingi yillarda amalga oshirilgan N.V.Shimkevich, E.A. Trifonova, N.V. Nosenko, M.G. Qurbonova tadqiqotlarida rus tilidagi ergonimlarning struktur-semantik, poetik, pragmatik hamda lingvokulturologik xususiyatlari ochib berildi⁹.

O‘zbek tilshunosligida *ergonim* termini bilan nomlanib, maxsus o‘rganilmagan bo‘lsa-da, ayrim ishlarda o‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me‘yoriy asoslari, ba’zi obyekt nomlarining lingvomadaniy xususiyatlari bo‘yicha muayyan xulosalar berildi; respublikamizdagi tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati, hududiy ko‘rsatkichi yaratildi¹⁰. Shuningdek, o‘zbek nomshunosligida onomastik birliklarning bibliografik ko‘rsatkichi nashr qilindi¹¹. Onomastik tizimning 40dan ortiq tarkibiy qismlari sanalgan ishlarda ham¹² ergonimika haqida ma‘lumotlar yetarli emas. Bu borada amalga oshirilgan ishlarni xolis baholab, shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda ergonimik birliklarni monografik aspektida o‘rganish dolzarb masaladir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi “Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek onomastikasi tizimida ergonimlarning struktur-semantik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini, o‘zbek tilida ergonimik nom yaratish qonuniyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek tilining onomastik tizimida ergonimik mikrotizim alohida turni tashkil qilishini ilmiy jihatdan asoslash;

o‘zbek tilida ergonimlarning sistem-struktur xususiyatlari, hosil qilinishi usullarini aniqlash;

neyming va ergonimika sohalari munosabatiga oydinlik kiritish;

o‘zbek tili ergonimlarining tipologik tasnifini yaratish;

3.Т. Аббревиатурные эргонимы г. Махачкалы как многоуровневая система: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2012.

⁸Крючкова М.Я. Многокомпонентные эргонимы в аспекте орфографии: проблема совершенствования нормы правописания: Дисс. ... канд. филол. наук. - Волгоград, 2003.

⁹ Шимкевич Н.В. Русская коммерческая эргонимия: прагматический и лингвокультурологический аспекты: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2002; Трифонова Е.А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика: на материале русских и английских эргонимов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006; Носенко Н.В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007; Курбанова М.Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Дисс. ... канд. филол. наук. –Волгоград, 2015; va boshqalar.

¹⁰ Saparniyazova M., O‘rozov J. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvomadaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me‘yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022; Saparniyazova M., Ahmedova N. Hududiy nomlar ko‘rsatkichi (Toshkent shahar Chilonzor va Shayxontohur tumanlari). – Toshkent: Malik-Print CO, 2022. – 310 b.

¹¹ Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi (bibliografik ko‘rsatkich). – Namangan, 2008. –168 b.

¹² Авлакулов Я. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –Ташкент, 2012. – 26 б.

ergonimlarning informativlik, kommunikativ natijaviylik, ishoraviylik, axborot ifodalash, nutqiy ta'sir ko'rsatish kabi pragmatik vazifalarini tizimli tahlil qilish;

ergonimlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish, ularda madaniy kodlarning namoyon bo'lishini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent shahridagi turli ijtimoiy obyektlar nomlarini anglatuvchi 10000dan ortiq ergonimlar tanlangan¹³. Ba'zi o'rinlarda ergonimlarning hududiy xoslanishi masalasini tahlil qilishda respublikamizning boshqa hududlaridagi nomlardan ham foydalanilgan.

Tadqiqotning predmetini ergonimlarning struktur-semantik, pragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, tasniflash, statistik tahlil metodlari, lingvopragmatik, lingvokulturologik tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek onomastikasi tizimida ergonimlar tasnifiy tamoyillar asosida oykomodonimlar, emporonimlar, pragmatonimlar, gemeronimlar, geortonimlar, poreyonimlar, firma nomlari, restoran nomlari, reklama nomlari kabi guruhlardan iborat alohida ergonimik mikrotizimni tashkil qilishi asoslanib, hududiy ergonimik mikrotizimning ergonim-mahsulot, ergonim-xizmat, ergonim-xom-ashyo, ergonim-brend, tovar belgisi kabi funksional xususiyatlari Toshkent shahri ergonimlari misolida ochib berilgan;

ergonimlarning attraksion – reklama qilish, mahsulotga xaridorlarni jalb qilishga qaratilgan hamda kvalifikativ – tijorat obyektining joylashuv o'rni haqida axborot berish vazifalariga ega ekanligi asoslangan;

o'zbek tilidagi ergonimlarning shakllanishida antroponimlar, toponimlar, retro nominatsiyalar, etnomadaniy so'zlar, assotsiativ birliklar, predmet, belgi, miqdor, harakatni ifodalovchi so'zlar, xorijiy so'zlar asos bo'lganligi, umumiy ergonimik birliklarning ko'pchiligi xorij so'zlari asosida yasalgani dalillangan;

marketologiyada neyming va lingvistikada ergonimika sohalari o'rtasidagi aloqadorlik belgilanib, neym (nom) va ergonimlar orasidagi amaliy hamda eksperimental, onomastik belgilarga ko'ra umumiy va lingvistik jihatdan xususiy jihatlari ochib berilgan;

ergonimlarning informativlik, ishoraviylik, kommunikativ natijaviylik hamda nutqiy ta'sir ko'rsatish kabi pragmatik xususiyatlari aniqlanib, ergonimlarda til egalari ongida o'rnatilgan madaniy kodlar namoyon bo'lishi dalillangan.

Dissertatsiyaning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Toshkent shahrining Shayxontohur va Chilonzor tumanlarida qo'llangan 10000dan ortiq ergonimik birliklar mavzuiy guruhlarga ajratilgan holda hududiy nomlar ko'rsatkichi nashr qilingan;

¹³Saparniyazova M., Ahmedova N. Hududiy nomlar ko'rsatkichi (Toshkent shahar Chilonzor va Shayxontohur tumanlari). – Toshkent:Malik-Print CO, 2022. – 310 b.; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxon va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. –125 b.; Davlat xizmatlari agentligidan 2020-2022-yillarda ro'yxatga olingan obyektlar, shuningdek, Toshkent shahri hududida kuzatishlar asosida to'plangan ergonimlar, internet tarmoqlaridagi materiallar.

80 000dan ortiq milliy nomlar zaxirasi yaratilgan va Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “Nomlash xizmati” tashkil qilingan;

“O‘zbek tilida ergonimlar (struktur-semantik, pragmatik va lingvomadaniy aspekt)”, “O‘zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari” monografiyalari nashr qilingan;

“Savdo, ishlab-chiqarish va tadbirkorlik subyektlari uchun Milliy nomlash xizmati” avtomatlashgan axborot tizimi, “Milliy nomlar interaktiv elektron platformasi” yaratilib, mualliflik guvohnomalari olingan;

ergonimlarning struktur-semantik, pragmatik hamda lingvokulturologik tadqiqi yuzasidan chiqarilgan xulosalar asosida “Amaliy tilshunoslik” bakalavr ta’lim yo‘nalishi uchun “Neyming nazariyasi va amaliyoti” fani dasturi ishlab chiqilgan, o‘quv rejaga fan sifatida kiritilgan va shu nomdagi o‘quv qo‘llanmasi yaratilgan;

dissertatsiya natijalari o‘zbek onomastikasi sohasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi, shuningdek, leksikologiya, lingvopragmatika, etnolingvistika, lingvokulturologiya bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqot natijalari filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va soha mutaxassislarining nomlarning struktur-semantik, pragmatik hamda lingvokulturologik tadqiqiga doir bilimlarini boyitishga amaliy jihatdan xizmat qilishi dalillangan;

dissertatsiyada tadqiq etilgan materiallar onomastik birliklarga oid izohli lug‘atlarni yaratishda va mavjudlarini boyitishda asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, nazariy ma’lumotlarning aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, xulosalarning zamonaviy lingvistik tahlil metodlari bilan asoslanganligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, mavzuning jahon tilshunosligining ustuvor ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ergonimlarning struktur-semantik, pragmatik hamda lingvokulturologik aspektda tadqiq etishning nazariy asoslari belgilab berilganligi, o‘zbek tilida nom hosil qilish usullari va tamoyillari ilmiy jihatdan asoslanganligi, har bir hudud ergonimlari bo‘yicha lingvistik tadqiqotlar olib borish, ularning grammatik, leksik-semantik, umumiy va xususiy belgilarini aniqlash, ergonimik lug‘atlarni yaratish asoslarini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati natijalarning onomastika, leksikologiya, etnolingvistika, pragmatika hamda lingvokulturologiya bo‘yicha yaratiladigan darslik va qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi bilan belgilanadi, dissertatsiya materiallari o‘zbek nomshunosligiga oid mavjud lug‘atlarni boyitishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyada keltirilgan nom hosil qilish tamoyillari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarga obyektga nom tanlash va uni ro'yxatdan o'tkazishda amaliy yo'riqnoma vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarini o'rganish asosida:

o'zbek onomastikasi tizimida ergonimlar tasnifiy tamoyillar asosida oykomodonimlar, emporonimlar, pragmatonimlar, gemeronimlar, geortonimlar, poreyonimlar, firma nomlari, restoran nomlari, reklama nomlari kabi guruhlardan iborat alohida ergonimik mikrotizimni tashkil qilishi yuzasidan bildirilgan xulosalaridan O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-78 raqamli «Hozirgi globallashuv davrida o'zbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (o'zbek tili vazifaviy uslublari tahlili asosida)» mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 8-iyundagi 3/1255-1255-son ma'lumotnomasi). Natijada publitsistik uslub xususiyatlari ergonimlarga doir nazariy qarashlar boyitilib, dissertatsiya materiallaridan olingan misollar bilan kengaytirilgan;

o'zbek tilidagi ergonimlarning fonetik, leksik-semantik, derivatsion va grammatik xususiyatlari, tashkilot, firma, ishlab chiqarish, tijorat, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini nomlashning lingvistik, psixologik, leksikografik mezonlari va qonuniyatlari tahlili bo'yicha chiqarilgan xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan AM-FZ-201908172-raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" (2020-2022-yy.) mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 5-maydagi 01/10-887-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tili ta'limiy korpusi leksik bazasidan o'rin olgan ergonimlarning tipologik tasnifi, struktur-semantik xususiyatlarini tavsiflashning mukammallashuviga erishilgan;

marketologiyada neyming va lingvistikada ergonimika sohalari o'rtasidagi aloqadorlik, neym (nom) va ergonimlar orasidagi amaliy hamda eksperimental; onomastik belgilarga ko'ra umumiy va lingvistik jihatdan xususiy jihatlar haqidagi ma'lumotlardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan yaratilgan 60230700 - Amaliy filologiya ta'lim yo'nalishi uchun malaka talablarini ishlab chiqishda, 2023-yil nashrga tayyorlangan "Neyming nazariyasi va amaliyoti" o'quv qo'llanmasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 18-apreldagi 02/1-755-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quv qo'llanmasining "O'zbek tilida nom yaratish usullari", "Neyming va ergonimika", "Ergonimlarning pragmatik tahlili", "Ergonimlarning lingvokulturologik tadqiqi" mavzularidagi o'quv materiallari mazmunan boyitilgan;

umumiy ergonimik birliklar tahlili, o'zbek tilidagi ergonimlarning shakllanishida antroponimlar, toponimlar, retro nominatsiyalar, etnomadaniy so'zlar, assotsiativ birliklar, predmet, belgi, miqdor, harakatni ifodalovchi so'zlar, xorijiy so'zlar asos bo'lganligi, milliy nomlarni hosil qilish bo'yicha bildirilgan

xulosa va tavsiyalaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 16-martdagi 144-son qarori normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zR Vazirlar Mahkamasi Ma’naviyat va Davlat tilini rivojlantirish departamentining 2022-yil 29-dekabrda 30/1-04 dalolatnomasi). Natijada qaror loyihasida savdo, ishlab-chiqarish obyektlari va mahsulotlar nomlari bo‘yicha ko‘rsatmalar aniqlashtirilishiga;

ergonimlarning attraksion – reklama qilish, mahsulotga xaridorlarni jalb qilishga qaratilgan hamda kvalifikativ – tijorat obyektining joylashuv o‘rni haqida axborot berish vazifalari xususidagi xulosalardan O‘zbekiston teleradiokompaniyasining “Bitmas xazina”, “Intervyu” dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Uzreport kanalining 2023-yil 29-maydagi 17-son ma’lumotnomasi). Natijada nom va jamiyat, nomlar tahlilining ma’naviy hayotga tatbiq etilishi bilan ko‘rsatuvlar ssenariylarining ilmiy-ommabopligi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 1 ta monografiya, 2 ta lug‘at, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika hamda 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 228 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ergonimlarning onomastik tizimdagi o‘rni va tadqiqi**” deb nomlangan dastlabki bobi uch bo‘limdan iborat. Uning “*Dunyo tilshunosligida ergonimlarni o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlar*” deb nomlangan birinchi bo‘limida ergonimlarning onomastik tizimdagi o‘rni, ularni belgilashdagi konsepsiyalar, ergonimlarning tilshunoslikda o‘rganilishi, tasnifi haqida so‘z boradi.

O‘zbek onomastikasidagi hali tadqiqini topmagan muammolardan birini ergonim tushunchasi tashkil etadi. Ma’lumki, tilshunoslikda *ergonim* termini tashkilot va korxonalar nomini anglatuvchi termin sifatida baholanadi.¹⁴ Shu bilan

¹⁴ Земскова С.В. Лексико-семантический и словообразовательный анализ эргонимов г. Тольятти Самарской области Российской Федерации: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: РУДН, 1996; Беспалова А.В.

birga, ko‘plab tadqiqotlarda bu termin o‘rnida uning qator muqobillaridan foydalanish hollari ham kuzatiladi. Bizningcha, ergonim - jamiyat hayotining turli sohalarida (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy) faoliyat yurituvchi korxonalar yoki tashkilotlarning, shuningdek, ishlab chiqarish mahsulotlari hamda tovar belgilarining nomi. Bularga ijodiy uyushmalar, xalqaro tashkilotlar, ta’lim muassasalari, sport jamiyatlari, firmalar, korporatsiyalar, savdo, ishlab chiqarish obyektlari va mahsulotlari misol bo‘la oladi.

Ilmiy manbalarda *ergonim* termini bilan aloqador bo‘lgan *ergonimika*, *ergonimiya*, *ergonimikon* terminlari ham uchraydi. M.Zaxarova-Sarovskaya *ergonim* termini va u mansub bo‘lgan tizim haqida to‘xtalar ekan, tadqiqotlarda *ergonimika*, *ergonimiya*, *ergonimikon* terminlarining qo‘llanishida har xilliklar mavjudligini ta’kidlaydi. U *ergonimiya* termini bilan ergonimlarni o‘rganuvchi fanni, ilmiy-tadqiqot ishlarida turli aspektlarda o‘rganilgan konkret nomlarga nisbatan *ergonimika* terminini qo‘llash mantiqan to‘g‘ri bo‘lishini, *ergonimikon* deganda ergonimlar, ya’ni konkret obyektlarni nomlovchi birliklar tizimini tushunish lozimligini ta’kidlaydi¹⁵.

Mazkur tadqiqotda jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yurituvchi korxonalar, tashkilotlar, ijodiy uyushmalar, ta’lim muassasalari, sport jamiyatlari, firmalar, korporatsiyalar, savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari va mahsulotlari nomlariga umumiy termin sifatida *ergonim*, ergonimlarni o‘rganuvchi sohaga nisbatan *ergonimika*, obyektlarga nom yaratishga nisbatan *ergonimik nom yaratish* terminlaridan foydalanildi.

N.V.Podolskayaning qayd etishicha, *ergonim* termini yunon tilidagi *eryov* – “ish, mehnat; faoliyat, vazifa” so‘zidan olingan bo‘lib, tijorat uyushmalari, turli birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar, korporatsiyalar, korxonalar, jamiyatlarning atoqli nomlariga nisbatan ishlatiladi. U ergonimlarga misol sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro astronomik ittifoq (XAI), Fanlar akademiyasi (FA), Moskva davlat universiteti (MDU), Kichik teatr, “Pravda” kombinati, “Spartak” sport uyushmasi, “Moguchaya kuchka” musiqa to‘garaklarini keltiradi.¹⁶

A.M.Yemelyanova esa ergonimlar tarkibiga faqat turli funksional profildagi korxonalarining tegishli nomlari, ya’ni tijorat birlashmalari, korxonalar, madaniyat, sport obyektlarini kiritadi.¹⁷ Y.A.Trifonova ergonimlarga huquqiy maqomidan qat’i nazar, har qanday tijorat obyektlariga tegishli atoqli nomlarni kiritadi va ular orqali subyekt tomonidan qabul qiluvchiga sun’iy ravishda pragmatik ta’sir o‘tkazish maqsad qilinishini ta’kidlaydi.¹⁸

Принципы и способы номинации в английской эргонимии // Номинация в ономастике. – Свердловск: Изд-во УрГУ, 1991; Голомидова М.В. Искусственная номинация в русской ономастике: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Екатеринбург: УрГУ, 1998.

¹⁵ Захарова-Саровская М. В. К вопросу об эргонимии // Вестник Кемеровского государственного университета. – Кемерово, 2018. – №3. – С. 187-188.

¹⁶ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. –187 с.

¹⁷ Емельянова А.М. Прагматический аспект эргонимии (на примере названий заведений общественного питания г. Уфы // <https://www.gramota.net/materials/2/2016/7-2/26.html>

¹⁸ Трифонова Е.А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика (на материале русских и английских эргонимов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – С.3.

Anglashiladiki, ergonimlar turli-tuman obyektlar nomlarini anglatuvchi, struktur, semantik tuzilishi jihatidan bir-biridan farqlanuvchi birliklar sifatida alohida mikrotizimni hosil qiladi. Bu birliklar onomastik tizim tarkibiga kiruvchi, uning bir tarmog‘i hisoblangan ergonimika birliklari bo‘lib, nafaqat obyektning nomlash sifatida, balki har bir hududdagi obyektlar nomlari xaritasini yaratishda, ularning o‘ziga xosligi va milliy jozibadorligini baholashda ham muhim o‘rin tutadi.

Rus tilidagi ergonimlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini o‘rgangan M.Kurbanova ergonimlarga yaqin bo‘lgan birliklar sifatida oykomodonim, emporonim, reklama nomlari, firmonimlarni keltiradi.¹⁹

Ko‘rinadiki, M.Kurbanovanning ushbu xulosasida N.V.Podolskaya, A.M.Yemelyanovadan farqli tarzda ergonimlarning doirasi ancha kengaytirilgan.

Tilshunoslikda ergonimlar onomastikaning alohida tarmog‘i sifatida XX asrning 90-yillaridan boshlab maxsus tadqiq qilina boshlandi. Bu yo‘nalishda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda ergonimlarning struktur-semantik, derivatsion xususiyatlari qatorida, pragmatik, lingvopoetik imkoniyatlari ham ochib berildi.²⁰

Qator tadqiqotlarda ergonimlarni tasniflash masalasi ilgari surildi. Rus tilshunosligidagi ilmiy manbalarda ergonimlarning turlari sifatida quyidagi obyektlar nomlari alohida ajratib ko‘rsatildi: 1) oykomodonimlar – do‘kon, firma, bank, turarjoy binolari peshtoqlaridagi nomlar (I.A.Astafyeva); 2) ergourbonimlar – ikkita denotatga ega, ya’ni tijorat tashkilotlari o‘zi joylashgan hudud nomi bilan bog‘liq lokal obyekt nomlari (R.I.Kozlov); 3) НКР (названия коммерческих предприятий) – (D.A.Yaloves-Konovalova); 4) firmonimlar – firma nomlari (O. Beley, V. Korshunova, T. Nikolaeva, Y. Ribak, A. Titarenko); 5) restoronimlar – restoran nomlari (Xoang Txi Xong Chang); 6) trofonimlar – umumiy ovqatlanish obyektlari nomlari (G.N.Starikova); 7) ergoreklamonim – reklama vazifasini ham bajaruvchi tijorat obyektlari nomlari (T.V.Vasileva); 8) glyuttonik pragmatonimlar – restoran va umumiy ovqatlanish korxonalarini nomlari (G.Odilova).

Mavjud ishlarda, ayniqsa, ergonimlarning funksional-semantik, derivatsion xususiyatlari chuqur yoritildi. Jumladan, F.Alistanova ergonimlarning atoqli otlarning bir ko‘rinishi sifatida quyidagi lingvistik xususiyatlarga egaligini bayon

¹⁹ Курбанова М.Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград. 2015. – С. 11.

²⁰ Шимкевич Н. В. Русская коммерческая эргонимия: прагматический и лингвокультурологический аспекты: Автореф. дисс. ... канд филол. наук. – Екатеринбург, 2002; Алиева Т. Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX–XXI веков: семантико-деривационный аспект: автореф. Дисс. ... д-ра филол. наук. – Спб., 2003; Крючкова М. Я. Многокомпонентные эргонимы в аспекте орфографии: проблема совершенствования нормы правописания: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2003; Крюкова И. В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентов: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004; Трифонова Е. А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика: на материале русских и английских эргонимов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006; Емельянова А. М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтничного города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2007; Носенко Н. В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007; Танаева З. Т. Аббревиатурные эргонимы г. Махачкалы как многоуровневая система: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2012; Курбанова М. Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2015; va boshqalar.

qildi: 1) alohida predmetlardan birini nomlashga xizmat qiladi va bir turdagi obyektни boshqalaridan ajratib ko‘rsatadi; 2) ergonim, odatda, asosdan anglashilgan tushuncha bilan bevosita bog‘liq bo‘lmasligi mumkin; 3) ergonimlar onimlarning alohida bir turi sifatida boshqa atoqli otlar kabi grammatik xususiyatlarga ega bo‘lib, turli so‘z turkumlari asosida hosil bo‘ladi: sifat, fe‘l, ravish, sifatdosh kabi.²¹

Ayrim tilshunoslar ergonimlarni onomastik maydondagi boshqa nomlar bilan birlashtirishga harakat qildilar. Jumladan, I.V. Kryukova *reklama nomi* sifatida taklif qilgan birliklar sirasiga ergonimlardan tashqari, *tovar belgilari nomlari* (pragmatonimlar), *ommaviy axborot vositalari nomlari* (gameronimlar), *festival, konkurs va konsertlar nomlari* (geortonimlar), *transport vositalari nomlari* (poreyonimlar)ni kiritdi.²²

Xullas, tilshunoslikda, xususan, rus tilshunosligida ergonimlar turli aspektlarda o‘rganildi va muayyan ilmiy xulosalarga kelindi.

O‘zbek tilshunosligida ergonimik birliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud bo‘lmasa ham, keyingi yillarda, garchi *ergonim* termini bilan berilmagan bo‘lsa-da, ayrim ishlar yuzaga keldi.²³

Manbalarda ergonimlarni tasnif qilishning bir qator ko‘rinishlari uchraydi. A.V. Superanskaya ergonimlarni real va ramziy (simvolik) tarzda ikki guruhga ajratadi²⁴. I.V. Kryukova esa ergonimlarni ifoda xususiyatiga ko‘ra uch guruhga ajratadi: real, shartli hamda ramziy²⁵.

Biz ishimizda ifoda xususiyatiga ko‘ra ergonimlarni tasniflashda ularning asosini tashkil qiluvchi birliklar semantikasiga asoslandik.

Ergonimlar ham boshqa onomastik birliklar kabi nominatsiya mahsuli sanaladi. Ergonimlar nominatsiyasida lug‘aviy birliklar real va ramziy ma’nolarni ifodalaydi va shu jihatdan ergonimlar ifoda xususiyatiga ko‘ra real va ramziy ergonimlarga bo‘linadi.

Real ergonimlar o‘zi atab qo‘ygan obyektning faoliyat turi yoki joylashishi haqida aniq ma’lumotlarni tashiydi: masalan, “O‘ZBEKISTON AVTOMOBIL TRANSPORTI AGENTLIGI”, ”XALQARO SHAXMAT AKADEMIYASI”, “KONSALTING MARKAZI”, “MILLIY OLIMPIYA QO‘MITASI”, “BUXORO TAOMLARI”, “SANOAT-QURILISH BANKI”, “NURONIY JAMG‘ARMASI”²⁶. Bunday ergonimlar obyekt haqidagi real axborotga asoslanadi, unda obyekt joylashgan yoki tegishli bo‘lgan hudud va faoliyat xarakteristikasi nomning asosiy komponentlarini tashkil etadi.

²¹ Алистанова Ф. Эргонимы современного русского языка как микросистема: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2011. – С.9.

²² Крюкова И. В. Рекламное имя: рождение, узуализация, восприятие. Учеб. пособие. – Волгоград, 2004. – С. 228.

²³ Saparniyazova M., O‘rozov J. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvomadaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me‘yoriy asoslari. – Toshkent: Malik Print CO, 2022.

²⁴ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. Москва: Наука, 1973. – С.195.

²⁵ Крюкова И.В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентности. Дисс. ... д. филол. н. Волгоград: Перемена, 2004. –С. 73.

²⁶ Bu haqda qarang: Saparniyazova M., Ahmedova N. Hududiy nomlar ko‘rsatkichi (Toshkent shahar Chilonzor va Shayxontohur tumanlari). – Toshkent:Malik-Print CO, 2022. – B. 15-35.

Ramziy ergonimlarda esa obyekt faoliyati qisman ko‘rsatiladi yoki ularga ishora qiladi; obyekt xususiyatini ma‘noviy aloqadorlikdagi so‘z yoki metaforalar orqali ifodalaydi. Masalan, FAROVON (restoran), KAMALAK (xususiy bog‘cha), KAFOLAT (maishiy texnika do‘koni) kabi. Bu o‘rinda nominatorlar tomonidan *farovon* so‘zi orqali adresat xotirasida to‘kin-sochinlik, mo‘l-ko‘lchilik, fayzli dasturxon haqidagi assotsiatsiyalarni uyg‘otish, *kamalak* so‘zi orqali bolalar yoqtiradigan rang-baranglik va bog‘cha faoliyatida ta‘lim turlarining ko‘pligi (musiqa, sport, til o‘rgatish va hk.), *kafolat* so‘zi orqali do‘konda sotiladigan mahsulotlar sifatiga ishonch uyg‘otish maqsad qilingan.

Ergonimlar faqat nomlovchi – onomastik qismdangina iborat birliklar emas, ularga tashkilot turi, huquqiy maqomi kabilar bilan birgalikda yaxlit birlik sifatida qarash lozim. Ergonimlarning tarkibiy qismlari tashkilot tipini ko‘rsatuvchi qism + nomdan tashkil topadi. Bundan ko‘rinadiki, ergonimlarning tarkibiy qismi tashkilot yoki korxonaning faoliyat turi, tashkiliy-huquqiy maqomi, ya‘ni onomastik klassifikator, uni boshqa shu kabi uyushmalardan farqlovchi xususiy onomastik komponent (nom)dan tuziladi. Masalan: “HUVAYDO” MEBELLAR UYI ergonimi *HUVAYDO* - xususiy onomastik komponent (nom); MEBELLAR UYI - onomastik klassifikator; KOMPANIYASI – uning statusi, huquqiy maqomini ko‘rsatadi.

Ergonimik birlik tarkibidagi nomni aniqlashtirish vazifasini bajaruvchi lingvistik unsurlar *onomastik klassifikator* deyiladi. Ergonimlarning onomastik klassifikatori sifatida obyekt faoliyat turini ko‘rsatuvchi *bank, turarjoy kompleksi, do‘kon, supermarket, savdo uyi, firma, kafe, restoran, stadion, kinoteatr, klub, teatr, park*; tovar belgilari nomlarini bildiruvchi *avtomobil, sovutgich, konfet, kir yuvish vositasi* kabi birlilarni ko‘rsatish mumkin.

Ergonimlarning huquqiy maqomini ko‘rsatuvchi til elementi sifatida *kompaniya, XK* (xususiy korxonasi), *MCHJ* (mas‘uliyati cheklangan jamiyat), *NTM* (nodavlat ta‘lim muassasasi), *OK* (oilaviy korxonasi), *XUJMSH* (Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati), *DUK* (davlat unitar korxonasi), *UK* (unitar korxonasi), *AJ* (aksionerlik jamiyati), *Qo‘shma korxonasi, AB* (advokatlik byurosi), *FX* (fermer xo‘jaligi) kabilarni ko‘rsatish mumkin. Zero, “Firma nomida uning tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilishi kerak”ligi qonunchilik hujjatlarida ham qayd etilgan²⁷.

Demak, ergonimlar o‘ziga xos tarkibiy tuzilishga ega onomastik birliklar bo‘lib, xususiy onomastik komponent (nom), onomastik klassifikator – tashkilot turi, huquqiy maqomi kabi ko‘rsatkichlar uyg‘unligidan iborat.

Bobning “*Neyming va ergonimika munosabati*” deb nomlangan keyingi bo‘limida ergonimikaga yondosh hodisa bo‘lgan neyming sohasi, ularning umumiy va xususiy jihatlari xususida so‘z yuritilgan.

Keyingi yillarda marketologiyada tashkilot, korxonasi, tovar belgilari, ishlab chiqarish mahsulotlari uchun o‘ziga xos, esda qolarli nom yaratish faoliyatiga nisbatan *neyming* terminining qo‘llanishi faollashdi.

Neyming termini ingliz tilidagi “*to name*” (nomlash, nom berish) so‘zidan olingan bo‘lib, XIX asr oxirlaridan marketologiya sohasiga kirib keldi va nom

²⁷ O‘z R “Firma nomlari to‘g‘risida”gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-1055517>

yaratish faoliyatiga nisbatan qo‘llandi. Ilmiy manbalarda neyning terminiga turlicha tavsif berilganiga guvoh bo‘lamiz. Neyning “nom hosil qilish bo‘yicha kasbiy faoliyat bo‘lib, buyurtmachi nuqtayi nazaridan o‘ziga xos nomlanishga ehtiyoji bo‘lgan barcha narsalarga nisbatan muvofiq nom tanlash (qidiruv, o‘ylab topish)²⁸, lingvistikaning fonosemantik va psixoanaliz vositalaridan foydalanish asosida kompaniya va savdo marka (brend)lari nomlarini yaratish jarayoni²⁹, tashkilot, loyiha va Internet-saytlar uchun jarangdor, esda qolarli va aniq nom yaratish bilan bog‘liq ishlar majmui³⁰, kompaniya, mahsulot, loyihalar uchun jarangdor, esda qolarli va aniq nom yaratish, nomlash³¹ sifatida izohlangan.

O‘tgan asrdan boshlab dunyo iqtisodiyotida bozor raqobatining tobora kuchayib borishi ishlab chiqarish, savdo-sotiq obyektlari, mahsulotlarga nom berish, nomni dunyo brendi darajasiga ko‘tarish masalasiga jiddiy yondashuvlarni taqozo qila boshladi. Mana shu ehtiyoj *neyning xizmatining* yuzaga kelishiga olib keldi va uni kasbiy faoliyat darajasiga ko‘tardi. *Neyning* termini *nomlash, nom berishga* nisbatan ishlatilsa-da, ma’no doirasi, qo‘llanish obyektiga ko‘ra o‘zbek tilidagi *nom* so‘zidan farq qiladi. O‘zbek tilida *nom* so‘zi borliqdagi har qanday narsa-predmet, voqe-hodisa, belgi-harakat, miqdor kabilarga nisbatan ishlatiluvchi so‘z bo‘lsa, *neyning* faqat tashkilot, firmalar, ishlab chiqarish va savdo-sotiq obyektlari, mahsulotlar, ularning markasi (brendi) nomlarini qamrab oluvchi terminologik birlik ekanligi bilan xarakterlidir. Bu termin zamonaviy marketologiyada aynan shu ma’nosida ishlatilmoqda va bugungi kunda ishlab chiqarish va savdo-sotiq obyektlari, mahsulotlarni nomlashning lingvistik jihatlarini o‘rganuvchi faoliyat turiga nisbatan qo‘llanmoqa.³²

Agar fundamental onomastika *onoma*, yani nomlarni tavsiflab, tasniflab, tizimlashtirsa, lingvistikada neyning sohasini amaliy, hatto eksperimental onomastika deb hisoblash mumkin. Onomastika neyningni, neyning esa onomastikani oziqlantiradi.

Neyning sohasida tijoriy nomlar majmuyi asosiy leksik baza sanaladi. Bu sohaning vazifasi nafaqat samarali tijoriy maqsadlardagi nomlarni yaratish, balki mavjud modellarni muvaffaqiyatlilik darajasiga ko‘ra monitoring qilish, biznes-onimiya (nom)ning turli segmentlaridagi yetakchi tendensiyalarni o‘rganish kabilardan iborat.

Marketologiyaning neyning sohasida yaratiladigan nomlar (neymlar) branding amaliyotida nom qozonishi, brend nomiga aylanishi ko‘zlanadigan birliklardir. Bunday nomlarni yaratishda ularning boshqa brend nomlari bilan raqobatlasha olishi maqsad qilib belgilanadi.

Ergonimlar neyning sohasida yaratiladigan birliklardan farqli tarzda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda faoliyat yurituvchi turli obyektlar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar nomini anglatadi. Ergonimlarning nomlanayotgan

²⁸ Панкрухина А.П. Маркетинг: большой толковый словарь. – М.: Омега – Л., 2011. – С. 1.

²⁹ Marketopedia. Онлайн энциклопедия маркетинга // <http://marketopedia.ru/114-naming.html>

³⁰ Финансовый словарь // https://dic.academic.ru/dic.nsf/fin_enc/25717

³¹ Викисловарь // <https://ru.wiktionary.org/wiki/>

³² Bu haqda qarang: Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Ўзбек тилида ном яратишнинг лингвистик асослари // Илм сарчашмалари. –Урганч, 2019. – №11. – Б.55.

obyektni dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashi, tijoriy maqsadlar uchun xizmat qilishi har doim ham shart emas. Mana shu nuqtada neyning sohasida yaratilgan nomlar va ergonimika birliklari bir-biridan ajraladi. Ergonimlar neyning sohasida yaratilgan birliklarni ham qamrab oladi. Neyning sohasida *neym*, onomastikada esa *ergonim* terminlari qo'llaniladi.

Anglashiladiki, ergonimlarni o'rganuvchi ergonimika va marketologiyaning neyning sohasida o'zaro aloqadorlik mavjud. Keyingi yillarda tilshunoslikka ham *neyning* termini kirib keldi va bu soha *neyning lingvistikasi* deb nomlandi. V.S.Yelistratov, P.A. Pimenovlarning fikricha, tilshunoslikda qo'llanilayotgan *neym* va *ergonim* terminlari asosida neyning va ergonimika fanlari o'rtasiga shartli tenglik belgisini qo'yish mumkin.³³

Xullas, ergonimlar boshqa turdagi har qanday onomastik birliklardan o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Ergonimlar, avvalo, bir vaqtda bir necha vazifa bajarishiga ko'ra ajralib turadi. Jumladan, "yaxshi nom kompaniyaning keyinchalik yutuqlarga erishuvini belgilaydi, negaki nom tashkilotga qo'shimcha boylik keltiruvchi o'ziga xos nomoddiy aktiv hisoblanadi"³⁴. Ergonimlarga xos eng muhim belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ergonimlar korxonalar, tashkilot, firma, tadbirkorlik faoliyati obyektlari, iste'mol tovarlarini nomlovchi lingvistik birliklar hisoblansa-da, obyektning inson psixologik tasavvuriga asoslangan ikkilamchi nomlari sanaladi.

2. Ergonimlar korxonalar, tashkilot, firma, tadbirkorlik faoliyati obyektlari, iste'mol tovarlarini nomlash barobarida so'zga yangi semantik mohiyat, pragmatik vazifa, konnotativ, milliy-madaniy bo'yoq yuklaydi. Bunday nomlarda nominatorlarning voqelikni idrok etishi, assotsiativ tafakkuri ham namoyon bo'ladi.

3. Ergonimlar korxonalar, tashkilot, firma, tadbirkorlik faoliyati obyektlari, iste'mol tovarlarini shunchaki nomlash vazifasini bajarmaydi, balki faoliyat turidan ko'zlangan maqsad, ishlab chiqarilgan mahsulotning tabiiy xususiyati haqida birlamchi ma'lumotlarni ham tashiydi.

4. Ergonimlar korxonalar, tashkilotlar o'rtasida, tadbirkor, uning mahsuloti va iste'molchi o'rtasida kommunikativ aloqa o'rnatish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, iste'molchiga hissiy ta'sir ko'rsatish, uni o'ziga jalb qilish vazifasini bajaradi.

5. Ergonimlar korxonalar, tashkilot, firma, tadbirkorlik faoliyati obyektlariga, iste'mol tovarlari hamda faoliyat egalariga, ular ishlab chiqargan tovarlarga berilgan baho hisoblanadi.

Birinchi bobning uchinchi bo'limi "*Ergonimika va reklama uyg'unligi*" deb nomlanadi. Reklama marketingning tarkibiy qismi hisoblanib, talab va iste'molchilar didining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Reklama korxonalar imijini yaratish (uzoq davrli ta'sir ko'rsatish), joriy sotish hajmini ko'paytirish (qisqa davrli ta'sir ko'rsatish), xaridorlarga nima sotib olish va uni nima uchun sotib olish zarurligini hal qilishda yordamlashish va boshqa maqsadlarda qo'llanuvchi vosita

³³ Елистратов В.С., Пименов П.А. Нейминг: искусство называть. – М.: Омега-Л, 2014. – С.111.

³⁴ Теоретические аспекты нейминга // <https://mylektsii.ru/6-11117.html>

sanaladi. Reklamaning asosiy vazifasi xaridorni qiziqtirish, mijozlarni yo‘qotmaslik va ularning safini kengaytirishga qaratiladi.

Ergonimlar, avvalo, bir vaqtda bir necha vazifa bajarishiga ko‘ra ajralib turadi. Ergonimlar dastavval informativ va kommunikativ funktsiya bajaradi. Ular o‘zi nomlayotgan obyektning faoliyat turi haqida ma‘lumot beradi va nom orqali iste‘molchi bilan samarali kommunikativ muloqotni amalga oshirish vazifasini bajaradi. Samarali kommunikativ muloqotni amalga oshirish esa bevosita reklama bilan chambarchas bog‘liq.

Ergonimlardan ko‘zlangan asosiy maqsad obyektning nomlash bilan birga, kishilar (iste‘molchilar) diqqatini shu obyektga jalb qilish ekan, bunday vaziyatda ergonimlar orqali obyektning reklama qilish vazifasi ham amalga oshadi. I.V.Kryukova ergonimlarni reklama nomi sifatida belgilaydi va har qanday ergonimlarni tabiatan reklama deb hisoblaydi³⁵. Reklama funksiyasini bajaradigan har qanday turdagi tijorat korxonasi nomlarini *reklama xarakteridagi ergonimlar* deb atadik. Ba‘zi manbalarda reklama funksiyalarini bajaradigan har qanday turdagi tijorat korxonasi nomlariga nisbatan *ergoreklamonim* terminining qo‘llanishi kuzatiladi.

Rus tilshunosi R.I.Kozlovning qayd etishicha, *ergoreklamonim* termini *kommersonim*, *emponim*, *oykomodonim*, *ergourbonim* terminlari qatorida *ergonim* konseptual maydoniga mansubligi, reklama va attraksion vazifani bajarishi, bu birlikning vazifasi axborotni kodlash emas, aksincha, uni ochiqlash, iste‘molchilarga obyekt va uning xususiyati haqida tasavvur hosil qildirishdan iborat ekanligini ta‘kidlaydi.³⁶

Anglashiladiki, R.I.Kozlov ergonimlarning obyektning reklama qilish xususiyatini e‘tirof etadi. Ergonimlarning bu vazifasi Y.S.Butakova, V.D.Bondaletov, I.E.Ratnikova, Xoang Txi Ben ishlarida ham qayd etilgan.³⁷

Ergonimlarning obyektning reklama qilishi attraktiv vazifa deyiladi va ularning kommunikativ-pragmatik vazifalari asosiga yuzaga chiqadi va bunda asosiy maqsad keng xaridorlar auditoriyasini jalb qilishga qaratiladi. Nominatorlar, firma, savdo, ishlab-chiqarish, tijorat obyektlari egalari muvaffaqiyatli tanlangan nom orqali iste‘molchilarni nomlanayotgan obyektga jalb etishga harakat qilishadi. Odatda, bu nomlar iste‘molchilarda ijobiy emotsiyalar va assotsiatsiyalarni chaqirishi va nominatsiya obyektiga nisbatan qiziqish uyg‘otishi maqsad qilinadi. Bunday vaziyatda ergonimlar reklama rolini bajaradi. Masalan, Toshkent shahrida ishlab chiqariladigan kolbasa va go‘sht mahsulotlariga qo‘yilgan “HALOL” ergonimi nominativ vazifa bajarish bilan birga, ushbu mahsulotlarning musulmon ahli uchun muhim hisoblangan belgisini namoyish qilishi, dorixona nomini anglatuvchi “ARZON APTEKA” ergonimi esa dorilar narxining arzonligini ta‘kidlash orqali

³⁵ Крюкова И. В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентности: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004. – 24 с.

³⁶ Козлов Р.И. Эргоурбонимы как новый разряд городской ономастики: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007. – С. 5-6.

³⁷ Бутакова Е.С. Эргонимы иноязычного происхождения в коммуникативном пространстве города: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Томск, 2013. – 27 с.; Бондалетов В.Д. Русская ономастика. Изд.2. – М., 2012. – 223 с.; Ратникова И.Э., Хоанг Т.Б. Эргонимы в ономастическом пространстве языка (на материале названий предприятий Минска и Ханоя // Вестник БДУ. Сер.4. 2016. – №1. – С.56-61.

reklama vazifasini ham bajaradi. “A’LO” (to‘yxona), “BENAZIR” (supermarket), “KO‘Z NURI” (ko‘z kasalliklari klinikasi) kabi ergonimlarda attraktiv vazifa yorqin namoyon bo‘lgan.

Poytaxtimizda joylashgan “YAPONAMAMA” (yapon taomlari), “Y БАБУШКИ” (rus taomlari) kafelari nomlari faoliyat turi (yapon, rus oshxonasi)ga ishora qilish bilan birgalikda, mahsulotning ishonchliligi, onalar va buvilar tayyorlagan taomlar haqida iliq xotiralarni, ijobiy hissiyotlarni uyg‘otadi, shu orqali ushbu ergonimlarning reklama xususiyati namoyon bo‘ladi.

Aksariyat hollarda, nominatorlar obyekt nomini xorijiy tilda nomlash orqali iste’molchilarni jalb qilish va reklama qilishga harakat qilishadi. Masalan, “GOLD BIZNES GARANT”, “PLATINUM TRUCK LOGISTICS”, “MASTER CONSALT”, “IDEAL CAKE” ergonimlarini hosil qilishda nomning jarangdor bo‘lishi, go‘yoki “o‘zimizniki emas, xorijniki” ekanligini targ‘ib qilish maqsad qilinadi. Bu kabi ergonimlar diqqatni jalb qilishi mumkin, biroq aksariyat hollarda informativ xususiyatga ega bo‘lmaydi.

O‘zbek tili ergonimik tizimida *dunyo, olam, uy* leksemalari bilan hosil qilingan ergonimlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bunday ergonimlar orqali obyektning kattaligi, ko‘rsatiladigan xizmat yoki ishlab chiqarilgan mahsulot turlarining ko‘pligiga ishora qilinadi: “BOLALAR DUNYOSI”, “KITOBLAR OLAMI”, “MEBELLAR UYI”, “KITOBLAR UYI” kabi.

Ko‘rinadiki, reklama xususiyatli ergonimlar obyektini turli jihatdan tavsiflash, uning reklama qiyofasini shakllantirish, pragmatik ta’sirni hosil qilish imkonini beradi. Bunday ergonimlar garchi obyekt haqida ba’zan to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lumot bermasa ham, noodatiy ekanligi, mazmunining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu ergonimlarda konnotativlikning ifodalanishi, nomlashda badiiylikka e’tibor qaratilishi til egalarida turli assotsiatsiyalarni ham yuzaga keltiradi.

Ishning ikkinchi bobi “**O‘zbek tili ergonimlarining funksional-semantik va struktur xususiyatlari**” deb nomlangan. “*O‘zbek tili ergonimik mikrotizimi xususiyatlari*” deb nomlangan birinchi bo‘limida ergonimik onomastikaning mikrotizimga xos xususiyatlar va uning tarkibiy qismlari tadqiq qilingan.

Har bir tildagi ergonimik mikrotizim birliklari xususiyatlarini tahlil qilish ularning hosil qilinishidagi turli yondashuvlar, obyektini nomlashning me’yoriy-huquqiy asoslari va hatto tilning ergonimik manzarasi, uning kelajakdagi holatini bashorat qilish imkonini beradi.

O‘zbek tili ergonimik mikrotizimiga xos muhim jihat shundaki, uning tarkibida turli obyektlarni nomlovchi, har xil struktur tuzilishga ega rang-barang birliklar jamlangan. Ergonimik mikrotizim tarkibida nom yaratuvchilar tomonidan hosil qilingan o‘ziga xos leksik birliklar qatorida, hatto bir necha tovushlar kompleksidan iborat birliklar, qisqartmalar, jamiyat a’zolari ongida o‘rnashgan mashhur birikma va jumlar ham uchraydi. Bu holat ergonimik mikrotizimning ochiq tizim ekanligi, uning tarkibi turli sath birliklaridan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Zero, “...ergonimlar onomastik tizimdagi eng tez o‘sib boruvchi leksik qatlamni tashkil qiladi, bu nomlarning paydo bo‘lishi va shahar xaritasidan chiqib

ketishi ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq”³⁸.

Ergonimik mikrotizim birliklari nafaqat tildagi mavjud birliklardan tashkil topadi, balki uning tarkibida o‘ziga xos okkozional yasalmalar ham uchraydi.

Ergonimik mikrotizim birliklari alohida guruhni tashkil qilsa-da, onomastik tizimdagi boshqa birliklar bilan bevosita aloqa-munosabatda bo‘ladi. Xususan, ergonimlar ko‘pincha toponimlar bilan bog‘liq holda shakllanadi.

Ma’lumki, savdo, ishlab-chiqarish obyektlari, korxonalar va tashkilotlar nomi u joylashgan hudud nomi bilan ham atalishi mumkin. Masalan, “QUSHBEGI” ergonimi Toshkent shahrining Qushbegi mavzesida joylashgan restoranni anglatadi. “CHORSU” (mehmonxona), “ROHAT” (avtosalon), “CHO‘PON OTA” (choyxona), “BESHYOG‘OCH” (bozor) kabi ergonimlar bevosita joy nomi bilan bog‘liq holda hosil qilingan.

Umuman, o‘zbek tili ergonimik tizimi ma’lum hududlar onomastikoniga mansub turli ergonimlarni qamrab oladi. Bunday kichik semantik guruhlar o‘zbek tili ergonimik mikrotizimini hosil qiladi. Ergonimik tizim tarkibiga kiruvchi birliklarni quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin:

1-jadval

O‘zbek tili ergonimik mikrotizimi tarkibi

Ergonimlarning turlari	Semantik xususiyatlari	Misollar
Bino va turarjoy nomlari (oykomodonimlar)	Binolar, turarjoy komplekslarini nomini anglatadi.	“Oq uy”, “Ko‘ksaroy”, “Shohsaroy”, “Sohil” turarjoylari
Tijorat do‘konlari, savdo komplekslari nomlari (emporonimlar)	Turli savdo shahobchalari (oziq-ovqat, kiyim-kechak, mebel, gul do‘konlari, savdo komplekslari) nomlarini anglatadi.	“Chorsu” savdo kompleksi“, “Navas”, “Markaziy univermag”, “Huvaydo” mebellar uyi
Firma nomlari (firmonimlar)	Turli firmalar nomini anglatadi.	“Qurilish komfort”, “El aziz ishonch”, “Omad”, “Yngi asr”
Ovqatlanish shahobchalari, restoranlar nomi (trofonim, restoronimlar)	Ovqatlanish shahobchalari, restoranlar nomini anglatadi.	Rayhon”, “Anjir”, “Anhor”, “Uch baqaloq”
Reklama vazifasini bajaruvchi nomlar (reklamonim)	Reklama vazifasidagi nomlarni anglatadi.	“Arzon apteka”, “Halol” kolbasa mahsulotlari
Tashkilotlarga tegishli tovar belgilari nomlari (pragmatonimlar)	Tovar belgilari nomini anglatadi.	“Qoraqum” shokoladi, “Pokiza” tozalash vositasi, “Chilla” sovutgichi, “Neksiya” avtomobili
Ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio va teleko‘rsatuvlar) nomlari (gameronimlar)	Ommaviy axborot vositalari nomini anglatadi.	“Ma’rifat”, “Bekajon” gazetalari; “Saodat” jurnali; “Umr daftari”, “Oydin hayot” ko‘rsatuvlari

³⁸Картавая Ю. К., Пепеляева Е. А. Реализация компетентностного подхода в системе профессионального образования // Материалы V Всероссийской научно-практической конференции – Симферополь: Ариал, 2018. – С. 168-170.

Turli tadbirlar, bayram, festival, tanlovlar, aksiyalar nomlari (geortoniqlar)	Turli tadbirlar, bayram, festival, tanlovlar, aksiyalar nomini anglatadi.	“Sharq taronalari” festivali, “Musaffo havo” turniri, “diktant.uz” aksiyasi
Transport vositalari nomlari (poreyonimlar)	Transport vositalari nomini anglatadi.	“Afrosiyob”, “Sharq” poezdlari, “Dilorom” kemasi

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida ergonomik mikrotizimning yuqorida ko‘rsatilgan mavzuiy guruhlarining har biri turli tillar misolida maxsus tadqiq etilgan yoki bu yo‘nalishda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mazkur guruhlariga mansub ergonomiklarda yuzaga chiqadigan ikkilamchi nominatsiya va uning kommunikativ ahamiyati, ergonomiklarning sotsiologiyistik, pragmatologiyistik, lingvokulturologik xususiyatlari o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida ergonomik mikrotizimni tashkil qiluvchi guruh birliklarining har biri maxsus tadqiq etilishi lozim.

Mazkur bobning ikkinchi bo‘limi “*Ergonomiklarning funksional-semantik tasnifi*” deb nomlangan.

Toshkent shahri hududida to‘plangan materiallar asosida ergonomiklarning turli funksional-semantik guruhlarini ajratish mumkin. Masalan, ergonomiklarning qanday tashkilot, muassasani nomlashiga ko‘ra tasnifi, ergonomiklarning qanday mahsulotni nomlashiga ko‘ra tasnifi, ergonomiklarning qanday maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarini nomlashiga ko‘ra tasnifi va hokazo. Masalan, mahsulot va xizmatlar: “ASL OSH” (oshxona), “PAYVANDCHI-KOMMUNALCHI” (XUJMSH), “XATTOT SERVIS (XK); tashkilot turini ko‘rsatish: “ZAMONAVIY ISSIQXONA” (OK), “YOSHLAR NASHRIYOT UYT”kabi. Mazkur guruhlar o‘z ichida yana kichik funksional-semantik guruhlariga bo‘linib ketadi. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishamiz. Birinchi guruh mahsulot va xizmatlar – ishlab chiqarilgan mahsulot va ko‘rsatiladigan xizmatning turi, xususiyatini ifodalovchi ergonomiklarni o‘z ichiga oladi:

ergonomik-mahsulot (tovar): bunda obyekt nomi savdo qilinadigan yoki ishlab chiqariladigan mahsulot nomiga asoslanadi: “SHIRMOY NON” , “XITTOY CHINNILARI” kabi. Ba‘zan mahsulot nomi bilan birga uning ta‘sischisi yoki u tegishli bo‘lgan joy nomi ham keltirilishi mumkin: “ALI TILLALARI”, “G‘IJDUVON TAOMLARI” kabi;

ergonomik-xizmat: bunda obyekt nomi u ko‘rsatadigan xizmat (tibbiy, maishiy, kommunal, huquqiy va hk.) turi asosida nomlanadi: “TIBBIY KO‘RIK”, “AUDITOR”, “ME‘MOR QURILISH SERVIS” (MChJ);

ergonomik-xom-ashyo: “ASL MARMAR”, “SARVAR MEGA SEMENT” kabilar;

ergonomik-brend, tovar belgisi: Qonunchiligimizda tovar belgisiga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisi (tovar belgisi) bu bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini (tovarlar) boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan belgilardir”. Sodda tilda aytganda, iste‘molchilar mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat

ko'rsatuvchilarni ularning tovar belgisi orqali tanib oladi. Sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchi, sifatli xizmat ko'rsatuvchilarning tovar belgilari iste'molchilar orasida o'zgacha mavqega, ishonchga ega bo'lib, mazkur tovar belgilari ostidagi mahsulot va xizmatlar ortiqcha reklamaga ehtiyoj sezmaydi va bozorda doimiy talabga ega bo'ladi. Shuning uchun ham, tovar belgisi bu tovar va xizmatlar egasining imidjini, mavqeyini belgilaydi.

ergonim-narx: bu kabi ergonimlarda ma'lum ma'noda reklama ham mavjud bo'ladi. Ya'ni mahsulot yoki xizmatning narxi, arzonligi yoki mahsulot sifatiga, ayni paytda, qimmat ekanligiga ham ishora mavjud bo'ladi: "ARZON APTEKA", "SHOP SALE", "PREMIUM LIBOSLAR";

ergonim-mahsulot sifati: "ZO'R SHAROB", "ASL OSH", "TOZA TURKIYA MOLLARI";

ergonim-baho: "OLTIN JO'JA", "OSUDA PARVOZ", "BESHBARMOQ №1";

ergonim-assotsiatsiya: bunda mahsulot yoki xizmat to'g'ridan-to'g'ri nomlanmaydi. Nom assotsiativlik darajasi yuqori bo'lgan so'zlardan tashkil topadi. Masalan, "Kichkintoy" do'kon nomi orqali kichik yoshdagi bolalar uchun mahsulotlar sotilishiga ishora qilinadi.

Har bir tilda ergonimlarni yaratishga qo'yiladigan muayyan mezonlar, amal qilinishi lozim bo'lgan lingvistik qonuniyatlar, talablar mavjud bo'lib, yangi nom hosil qilish yoki til tizimidagi mavjud nomlar ichidan mos kelganini tanlab, uni nom sifatida taqdim etishda ularga asoslanish lozim bo'ladi. Ishda ergonimlarning "madaniy nom" mezonlariga muvofiq bo'lishi, bu o'rinda "*madaniy nom*" tushunchasi *nomning aniqlik, to'g'rilik, mantiqiylik, ta'sirchanlik, jo'yalilik* kabi o'lchovlarga muvofiq bo'lishi aniq faktik materiallar misolida tahlil qilindi.

Ergonimlarni hosil qilishda quyidagi qat'iy mezonlarga amal qilinishi lozim:

1. Ergonim tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxonalar, firma, iste'mol tovarlari, uning markasi (brendi) haqidagi eng muhim ma'lumotlarni aks ettirishi.
2. Ergonimni yaratishda tilning adabiy me'yorlari (fonetik, leksik, orfoepik, grammatik, uslubiy me'yorlar)ga rioya etilishi.
3. Ergonimning til egalarining umummilliy madaniy qarashlari, an'analari, mentaliteti, dunyoqarashi, psixologiyasiga zid kelmasligi.
4. Ergonimning ijtimoiy-siyosiy tizim tamoyillariga zid kelmasligi.
5. Ergonimning insonda yolg'on tasavvur uyg'otmasligi, aksincha, uni o'ziga jalb etishi, tasavvurida ijobiy munosabat hosil qilishi hamda xotirasida tez va oson saqlanib qolishi.
6. Ergonimning til egalari uchun tushunarli, aniq hamda talaffuzga oson bo'lishi.
7. Ergonimning samarali kommunikativ muloqot uchun xizmat qilishi.
8. Ergonimning mahsulot va iste'molchi o'rtasida aloqa ko'prigi vazifasini bajarishi.
9. Ergonimning boshqa nomlar bilan o'xshash bo'lib qolmasligi, ular anglatgan mahsulotlarni yodga solmasligi kabilar.

Qayd etish lozimki, tilda ergonimlarning hosil bo'lishida nafaqat lingvistik, balki psixologik, milliy-madaniy mezonlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bobning "*Ergonimlarning struktur va derivatsion xususiyatlari*" deb nomlangan uchinchi bo'limida ergonimik nom yaratish modellari, usullari, so'z yasash xususlari tadqiq etilgan.

Ergonimlarning struktur jihatdan quyidagi turlari belgilandi: 1) bir komponentli ergonimlar: “FAYZ”, “HUVAYDO” (mebellar uyi); 2) ikki komponentli ergonimlar: “QAQNUS MEDIA” (MCHJ); 3) uch komponentli ergonimlar: “OSIYO SIFAT LYUKS”, “MASHHUR BARAKA TEXTIL”; 4) to‘rt komponentli ergonimlar: “HAKIM BOBO ZAR ZAMINI”; 5) so‘z birikmasi shaklidagi ergonimlar: MO‘JIZALAR DUNYOSI”, “JAJJI ALPOMISH” (MTT); 6) gap shaklidagi ergonimlar: “AVTOMOBILDAN SAQLANING” (avtoxizmat korxonasi), “AYOLNI IZLANG” (atir-upa do‘koni).

Ergonimlarning derivatsion tahlili ularning fonetik, leksik va grammatik vositalar yordamida hosil qilinishini ko‘rsatdi. Jumladan, o‘zbek tilida ergonimlarning hosil qilinishida fonetik vositalar - unli yoki undosh tovushlarning takrori muhim o‘rin tutadi.

Tilshunoslika unli yoki undosh tovushlar simmetriyasi, ya’ni takrori asosida hosil bo‘lgan ergonimlar *fonoergonimlar* deb ataladi. Bunday ergonimlarda aksariyat hollarda informativlikning ifodalanishi ahamiyatli emas. Balki ularning jarangdorligi, musiqiyliigi, jozibadorligi muhim o‘rin tutadi. Masalan, “KARS-KURS” (makkajo‘xori qalamchalari, mahsulot nomi), “SIM-SIM”, “KISH-MISH” (restoranlar), “JIZ-BIZ” (kafe), “ZAM-ZAM” (ma’danli suv) shular jumlasidandir.

Ergonimlarni hosil qilishda nafaqat fonetik, semantik aspektlar, balki leksik, morfologik, sintaktik, stilistik aspektlarning ham ahamiyati katta. Bu aspektlar ergonimlarning adabiy tilning fonetik, leksik, so‘z yasaliishi, orfografik, morfologik, sintaktik, uslubiy me‘yorlariga muvofiq bo‘lishini nazorat qiladi.

Toshkent shahrida nominatorlar tomonidan tashkilot, korxonalar, firma, tijorat obyektlari, iste‘mol tovarlariga quyidagi usullarda ergonimlar hosil qilinganligi aniqlandi:

1. Leksik-semantik usul. Tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxonalar, firma, iste‘mol tovarlarini bu usulda nomlashda so‘zning ko‘chma ma‘nosiga asoslanganligi kuzatildi. Masalan, poytaxtimizning Yunusobod tumani 19-dahasida ishlab chiqarilayotgan ko‘k choyga berilgan “TOZA” nomi so‘zning ko‘chma ma‘nosi (“aralashmalardan xoli, sof, asil”³⁹) asosida hosil qilingan. Toshkent shahri, Uchtepa tumanida ishlab chiqarilayotgan bolalar yogurti, qatiq, ayron mahsulotiga berilgan “MUSAFFO” nomida ham *musaffo* so‘zining ko‘chma ma‘nosi (“toza, asl”) inobatga olingan.

2. Affiksatsiya usuli. Tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxonalar, firma, iste‘mol tovarlariga affiksatsiya usulida yangi nom hosil qilinishi ko‘p kuzatilmadi. Bu usulda quyidagi nomlar hosil qilinganligi aniqlandi: “CHILLACHI” (konditsioner mahsuloti), “MARVARIDZOR” (firma), “QANOTCHI” (restoran).

3. Kompozitsiya usuli. Tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxonalar, firma, iste‘mol tovarlariga kompozitsiya usulida quyidagi nomlar hosil qilinganligi aniqlandi:

³⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2008. 5-жилд. – Б. 133.

a) soʻzlarni qoʻshish orqali yangi nom hosil qilish: “OʻZBEKNAVO” (estrada birlashmasi), “ALOQALOYIHA” (DUK);

b) soʻzlarni yonma-yon qoʻllash orqali yangi nom hosil qilish: “ZIYO NUR FARM” (xususiy korxonalar, Toshkent shahri), “NUR KITOB” (savdo doʻkoni); “KAVSAR-MAORIF” (XK);

c) soʻzlarni juftlash orqali yangi nom hosil qilish: “ISHONCH-IMON”, “MEROS-FILM” (MCHJ), “LANGAR-BARAKA” (XK);

d) soʻzlarni yonma-yon qoʻllash va juftlash orqali yangi nom hosil qilish: “TOSHKENT YOGʻ-EKSTRAKSIYA” (korxonalar).

4. Abbreviatsiya usuli. Tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxonalar, firmalar nomining bu usulda hosil qilinishida quyidagi holatlar aniqlandi: 1) birikmaning birinchi tovushi bilan nom hosil qilish; 2) qisqartmalar ishtirokida nomlar hosil qilish; 3) soʻzlarni yonma-yon qoʻllash orqali “shartli qisqartmalar” hosil qilish. Qisqartma nomlar koʻp hollarda davlat muassasalari nomida kuzatiladi.

Birikmaning birinchi tovushi bilan nom hosil qilinishi quyidagi nomlarda kuzatiladi: AOKA (Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi), “BMG” (“Buzines menagement group, buxgalteriya-konstaling xizmati).

Qisqartmalar ishtirokida nomlar hosil qilish: “OʻZTRANSLIZING”, “TOSHISSIQQUVVATI” (UK).

Shuningdek, oʻzbek tilida tavsiflash, baholash, munosabat ifodalash kabi usullarda ham ergonimlar hosil qilingan.

Ergonimlar til egalari tomonidan hosil qilinarkan, ularda shaxs omilining taʼsiri kuzatilishi tabiiydir. Bu holat turli tillarda ergonimlarni yaratish tamoyillari inson omili bilan bogʻliq holda oʻzaro farqlanishini koʻrsatadi.

Ishda ergonimlarni hosil qilishning 11ta strukturaviy guruhlarini aniqlandi: Antroponim asosli, toponim asosli, retro nominatsiyalar, yaʼni tarixiy shaxslar bilan nomlash, xorij soʻzlar bilan nomlash, assotsiativ birliklar asosli ergonimlar, etnomadaniy soʻzlar asosli ergonimlar, fasl nomlari asosli ergonimlar, oziq-ovqat, meva mahsulotlari asosli ergonimlar, tavsiflash asosli ergonimlar, baholash asosli ergonimlar, istak-xohish asosli ergonimlar.

Uchinchi bob “**Oʻzbek tili ergonimlarining pragmatik tadqiqi**” deb nomlanadi. Unda ergonimlar orqali ifodalanadigan axborotning pragmatik xususiyatlari tadqiq etilgan. Bobning “*Ergonimlarning kommunikativ natijaviylik va nutqiy taʼsir koʻrsatish vazifasi*” deb nomlangan birinchi boʻlimida ishlab chiqarish, maishiy xizmat koʻrsatish, savdo-sotiq obyekti, mahsulotlarga nom tanlashga innovatsion yondashuv ergonimlarning informativlik jihatini, nutqiy taʼsir kuchini oshirishda, isteʼmolchi bilan aloqasini taʼminlashda muhim oʻrin tutishi masalalari haqida soʻz yuritiladi. Ergonimik nom yaratish bilan bogʻliq bu muammolar nafaqat marketologiya, balki onomastikaning ham dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Jumladan, oʻzbek tilida ishlab chiqarish, savdo-sotiq obyektlari, korxonalar, firma, mahsulotlar uchun ergonimik nom yaratishning lingvistik meʼyorlari, soʻz tanlashning lingvopragmatik asoslari, ergonimlarning leksik-semantik, grammatik, grafik-shakliy xususiyatlari, tasnifi, hududiy farqlanishi kabi masalalar maxsus tadqiqotlarni taqozo etadi.

Ergonim nominativ vazifa bajarishi bilan birga, quyidagi xususiyatlarga ham ega bo'lishi lozim: 1) informativlik; 2) kommunikativlik; 3) nutqiy ta'sir ko'rsatish.

Ergonimlarning kommunikativ vazifa bajarishi *nom + iste'molchi* munosabatida ko'zga tashlanadi. Iste'molchi nom vositasida ishlab chiqarish, savdo-sotiq obyektlari, korxonalar, firma bilan ko'zga ko'rinmas kommunikativ aloqaga kirishadi. Ya'ni nom iste'molchiga ishlab chiqarish, savdo-sotiq obyektlari, mahsulot haqida axborot beradi, iste'molchi esa bevosita bu axborotni qabul qiladi.

Ergonimlarning kommunikativ vazifasi kommunikativ natijaviylik asosida belgilanadi. Ergonimning iste'molchiga muayyan axborotni yetkazishi va shu orqali u bilan munosabat o'rnatishi kommunikativ natijaviylik hisoblanadi. Ammo shunday ergonimlar ham uchraydiki, ularda kommunikativ natijaviylik kuzatilmaydi. Masalan, Toshkent shahar Shayhontohur tumanida ro'yxatdan o'tgan "DILIM-SHOD" (dorixona) mas'uliyati cheklangan jamiyat nomi iste'molchiga o'zi haqida axborot bera olmaydi. Xuddi shunday, "IRODA SHERZOD OMAD", "INNATILLO OBOD", "SHODIYA MAKON" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, "HABIBULLAXON-ESHON" xususiy firmasi nomlari ham tashkilot ta'sischi nomidan boshqa axborot tashimaydi. Bu holat ushbu ergonimlarning iste'molchi bilan bilvosita muloqotga kirishuviga to'sqinlik qiladi.

Ergonimlarning til egalariga notanish bo'lgan xorij so'zlaridan tanlanishi yoki ular ishtirokida adabiy til me'yorlariga nomuvofiq holda hosil qilinishi ham birlamchi muloqot, ya'ni ergonim orqali axborot uzatish va uni iste'molchi tomonidan qabul qilinishida kommunikativ to'siqni yuzaga keltiradi. Albatta, har bir tilda ergonim yaratishning muayyan talab va mezonlari mavjud bo'lib, unga amal qilish nomning kommunikativ natijaviylik shartlaridan biri hisoblanadi.

Ergonimlar iste'molchilarga nutqiy ta'sir ko'rsatish vazifasini bajarishi jihatidan ham ahamiyatlidir. Bunday ergonim nafaqat ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq obyektlari yoki mahsulotni nomlaydi, balki iste'molchini o'ziga jalb qilishiga ko'ra ham pragmatik vazifa bajaradi. Ayniqsa, savdo-sotiq maqsadini ko'zda tutuvchi obyekt nomlari iste'molchini, avvalo, nomi bilan o'ziga jalb qilishi lozim. Ergonim iste'molchini o'ziga jalb qilgan ekan, bu orqali nutqiy ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi.

Uchinchi bobning ikkinchi bo'limi "*Ergonimlarning ishoraviylik va axborot ifodalash vazifasi*" deb nomlangan. Ergonimlar nomlash vazifasidan tashqari quyidagi vazifalarni ham bajaradi. Ularning asosiylari: 1) nominativ-farqlovchi; 2) axborotlilik; 3) reklama-targ'ibot; 4) xotirlash; 5) estetik; 6) shaxsiy mulkni muhofaza qilish funksiyasi.⁴⁰

Ergonimlarning farqlash vazifasi atalgan obyektning shu makondagi yoki faoliyati jihatidan o'xshash obyektlardan boshqa yoki o'zgacha ekanligini ko'rsatadi. Masalan, bir qatorida bir nechta kitob savdosi bilan shug'ullanuvchi do'konlar mavjud. Ularning bir-biridan farqini ko'rsatuvchi va xaridorga ularni

⁴⁰ Григорьева Н.И. Эргоним как источник культурно-эстетической информации (на материале названий российских рок-групп) // Лингвокультурология. 2007. – № 1. – С. 58-63.

tanitishning asosiy yo'li nom bilan atashdir. Iste'molchi kitob do'konlarining bir-biridan farqini birlamchi shu ergonimlar asosida xotirasida saqlaydi.

Ergonimning axborot uzatish vazifasi adresantga obyekt faoliyati haqida xabar berishi orqali yuzaga chiqadi. Masalan, "KITOBLAR DUNYOSI", "KITOBIM-OFTOBIM" do'konlarining nomi tinglovchida "*Bu kitoblar sotiladigan do'kon*" axborotini uyg'otishi mumkin. Shuningdek, bu kabi ergonimlar tarkibida qo'llangan "*dunyo*", "*shahar*", "*olam*" leksik birliklari obyekt faoliyatining kengligi haqida ham axborot beradi, ya'ni "KITOBLAR DUNYOSI" do'koni nomi orqali qo'shimcha "*Bu do'konda xilma-xil kitoblar topish mumkin*" axborotini ham anglash mumkin. "KITOBIM-OFTOBIM" do'koni nomida bu axborot mavjud emas. Chunki mazkur o'xshatish kishida bolalik bilan bog'liq assotsiatsiyalarni uyg'otadi, shuning uchun ham mazkur do'kon bolalarga atalgan kitoblar savdosi bilan shug'ullanadigan obyekt haqidagi yashirin axborotni ifodalaydi.

Muvaffaqiyatli muloqot uchun adresat muayyan belgi yordamida yaratilgan xabarni adresantga yuborishi zarur. Bunda nom sifatida qo'llaniladigan so'zlar odatda ma'nosi aniq so'zlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq. Shundagina mahsulot va iste'molchi o'rtasidagi munosabatlarning barqaror bo'lishi ta'minlanadi. I.A.Tortunovaning fikricha, ergonimning tashqi ifodasi uning axborotlilik bilan uyg'unlashsagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.⁴¹

Ergonimlar adresat uchun mahsulot yoki xizmat to'g'risida muayyan axborot yetkazib berishi lozim va shu nuqtayi nazardan ba'zi manbalarda ergonimlar mustaqil matnlar sifatida qaraladi. Rus tilshunosi M.V.Kitaygorodskaya bunday ergonimlarni alohida nutq janri deb ataydi.⁴²

Odatda, ergonimlar uni qabul qiluvchining assotsiativ-majoziy xotirasini faollashtiradi: dastlab hissiy reaksiya paydo bo'ladi, so'ng hissiy-baholovchi munosabat uyg'onadi va nihoyat, harakat, ya'ni ushbu obyektga murojaat qilishni istashi yoki istamasligi namoyon bo'ladi. Zero, ergonimlar samaradorligi shartlaridan biri bu nom beruvchi g'oyasining o'ziga xosligi va turli xil individual psixologik va motivatsion xususiyatlarga ega adresat tomonidan uning idrok etilishidir.

Adresatning ergonim orqali obyekt to'g'risida anglagan ma'lumoti yoki bilimi va nomlovchi nimani nazarda tutib, yoki nima maqsadda qo'yganligining mos kelish va kelmasligi ham muhim ahamiyatga ega. "QALDIRG'OCH" ergonimi musiqa maktabiga qo'yilgan bo'lib, undan adresat va nominatorning fikri mos kelishini anglash mumkin. Zero, "QALDIRG'OCH" ergonimi kishida *bahor faslida qushlarning ovozi yoqimli musiqa kabi dilni xushnud etishi* taassurotini uyg'otadi. Xuddi shunday, "BULBULCHA" bolalar xor ansambli nomi ham adresat va nominator fikri muvofiq kelishiga misol bo'la oladi.

Bobning uchinchi bo'limi "*Ergonimlarda yashirin axborotning ifodalanishi*" deb nomlangan. Obyekt nomi haqidagi axborot oshkora yoki yashirin shakllarda berilishi mumkin. "OZIQ-OVQATLAR", "MILLIY TAOMLAR", "KIYIM-KECHAKLAR", "XO'JALIK MOLLARI" kabi ergonimlarda nom orqali axborot

⁴¹ Тортунова И.А. Эргоним как результат речетворчества // Научный диалог. 2012. – № 3. – С. 124-137.

⁴² Китайгородская М. В., Розанова Н. Н. Речевые одежды Москвы // Русская речь. 1994. – № 2. – С.45-53.

ifodalashning oshkora shaklini ko'rish mumkin. Nom yaratuvchi, aksariyat hollarda, o'z kommunikativ niyatini amalga oshirishda ba'zan verbal ifodada noshakliy mazmun ko'rinishini tanlaydi. Axborotning oshkora shakli ifodaning har qanday ko'rinishida mavjud, u ko'pincha nutq predmeti xususidagi oddiy propozitsiyani tashkil qiladi va bu oshkora mazmun deb yuritiladi.⁴³ So'zlovchi fikr ifodalashning eksplitsit, ya'ni oshkora usulidan foydalansa, uning gaplari ko'proq nutq qaratilgan shaxsga ma'lumot yetkazish, uni xabardor qilish bilan chegaralanadi.⁴⁴ "SIZ UCHUN", "BARCHASI XARIDORBOP", "BIZDA HAMMASI CHO'NTAKBOP" kabi nomlar iste'molchiga motivatsiya berish maqsadida qo'yiladi, biroq bunday nomlar ham aniq axborotdan yiroq bo'ladi, adresatga qisman, ya'ni noto'liq axborot beradi. Ayrim hollarda motivatsion xarakterga ega, obyektning boshqa shu turdagi obyektlardan farqli jihatini ifodalovchi nomlar ham kuzatiladi. Masalan, "SIFATLI TA'LIM" (o'quv markazi) ergonimining *sifatli* qismi xaridorda qiziqish, motivatsiya uyg'otadi va boshqa mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchi obyektlardan shu jihati bilan farqli ekanligiga ishora qiladi.

"D VA LOLA", "BTK-ZAR" (brilliant, tilla kumush) kabi qisqartmalarga ega okkazional ergonimlar ham iste'molchida qiziqish uyg'otishi mumkin. Ular o'zining sirliligi bilan xaridorni o'ziga jalb qiladi. N.Golev bunday nomlarni indeks nomlar deb ataydi.⁴⁵

To'rtinchi bob Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**O'zbek tili ergonimlarining lingvomadaniy xususiyatlari**" deb nomlanadi. "*Ergonimlarning milliy-madaniy xoslanishi*" deb nomlangan birinchi faslda ergonimlarning milliy-madaniy xususiyatlari ochib berilgan.

Ergonimlar millatga xos tasavvur, assotsiativ fikrlash, dunyoqarashni aks ettirishi, shuningdek, ularni hosil qilishda milliy til zaxirasidan so'z tanlash, nom ijod qilishdagi o'ziga xoslikka ko'ra milliy-madaniy jihatdan xoslanadi. Ergonimlarning milliy-madaniy xoslanishi, ayniqsa, ularning milliy-madaniy xoslangan leksemalar bilan hosil qilinishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday ergonimlarda til egalarining madaniy hayoti hamda milliy dunyoqarashi namoyon bo'ladi. Masalan, "BEK BARAKA", "ABU SAXIY" (bozor), "MUSLIMABONU CHEVAR" (OK).

Milliy-madaniy xoslangan ergonimlarning nominativ asosi ma'lum tildagi mifologik, badiiy, astronomik, milliy, umuminsoniy, ilmiy realiyalar bilan bog'liq bo'ladi. Bobning ushbu faslida ergonimlarni hosil qilishda mifologemalardan foydalanish, tarixiy nomlar yoki faktlar, tildagi pretsedent birliklar, xususan, mashhur adabiy qahramonlarning ismlari, taxallus va laqablari asosida hosil bo'lgan ergonimlarning milliy-madaniy xoslanishi yoritilgan. Masalan, Toshkent shahri ergonimlari lug'aviy strukturasi ko'pincha antik mavzu ustuvorligi seziladi: "DIONIS", "ORFEY", "GELIOS" (kafe) kabi. Shu bilan birgalikda rus folklori,

⁴³ Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 75-93.

⁴⁴ Ибрагимова Ф. Синтактик бирликлар воситасида бадий мақсадни яширин ифодалаш ҳақида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Тошкент, 2019. – Б. 59-63.

⁴⁵ Голев Н.Д. Заметки об условно-символической номинации в русском языке // Актуальные проблемы лексикологии и словообразования: Науч. тр. Новосиб. гос. ун-та. Вып. IX. – Новосибирск, 1980.

mifologiyasi va adabiy ismlari ham keng qoʻllanadi: “ЧЕБУРАШКА”, “КРАСНАЯ ЩАПОЧКА”, “АЛЕНУШКА”, “ЗОЛОТОЙ ПЕТУШОК” (maktabgacha taʼlim muassasalari nomlari). Milliy ertak qahramonlari nomlari ergonim sifatida yaxshi assotsiatsiyalarni yuzaga keltirishi mumkin: “ZUMRAD VA QIMMAT”, “ТОПQIRVOY”, “KICHKINA SHAHZODA” (maktabgacha taʼlim muassasalari nomlari). Shuni alohida taʼkidlash lozimki, oʻzbek ogʻzaki va yozma adabiyotidagi juda katta potensial - tarixiy-madaniy antroponimlar, adiblarning ismlari, asarlari nomlari va asar qahramonlari nomlari ergonimlar hosil qilishda juda katta leksik bazani tashkil qiladi va bu orqali maʼlum hududlar ergonimik manzarasining yaxshilanishiga, milliy koloritning qabarishiga erishish mumkin boʻladi. Bunda umumilliy tarixiy-madaniy antroponimlar bilan bir qatorda hududiy brend-nomlardan ham keng foydalanish mumkin. Masalan, “TUXUM BARAK”, “YOSHULLI” (Xorazm taomlari kafesi), “BALAGʻAZA” (Buxoro taomlari kafesi), “JIZ”, “TANDIR” (Qashqadaryo taomlari kafesi) hududiy milliy kolorit ajralib turadi. Mamlakatimiz viloyatlaridagi tarixiy obidalar, ziyoratgohlar mashhurligi, madaniy rang-barangligi ham ergonimik manzara bilan uygʻunlashadi.

